
Qo'shtepa tumanida "mahalla yettiligi" uchun o'quv-amaliy seminar bo'lib o'tdi

Bugun Qo'shtepa tumani hokimligi katta majlislar zalida "Mahalla yettiligi" a'zolarining mahalladagi faoliyatini samarali tashkil etishga oid bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida "Mahalla yettiligi" a'zolarining faoliyatini samarali tashkil etishga oid bilim va ko'nikmalarini oshirish" mavzusida o'quv-amaliy seminar o'tkazildi.

Seminarni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish o'quv kurs markazi bo'lim boshlig'i Madaminjon Madraximov olib bordi. Unda mavzuga doir qonunchilikdagi yangiliklar hamda mahalla "yettiligi"ning funksional vazifalari haqida batafsil tushuntirishlar berildi.

Seminardan ko'zlangan maqsad "mahalla yettiligi"ning o'zaro hamkorlikda ishlash mexanizmlari hamda ularning kollegial mas'uliyatini oshirish, mahalla raislarining, ularning sa'y-harakatlarini birlashtirishdir.



2024-09-14 11:39:01